

MAHALLAM – FUQAROLIK JAMIYATINING POYDEVORI

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabalari

Tashmetova Mavluda Alisher qizi

Nizamov Sarvar Zayniddinxon o‘gli

Ilmiy rahbar: TVCHDPI o‘qituvchisi

Adambayev Umidbek Xaitbayevich

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish “Mahalla”ga berilayotgan e’tibor va rivojlantirish uchun qilinayotgan harakatlar haqida mulohaza qilinadi.

Kalit so‘zlar

Mahalla, jamiyat, jamoa, qadiryat, urf-odat, qo‘ni-qo‘shnichilik, Mahalla tinchligi va obodligi.

Kirish:

Yurtimizda jamiyat o‘z-o‘zini boshqarishning an’anaviy usuli bu mahalladir. Mahalla shu so‘z mazmunida butun olam ezguliklari, urf -odat va an’analari, qaynoq taftini mujassam qilgan. Qadimdan faqatgina odamlarning urug‘ jamoasigina emas, balki ishlab chiqarish manfaatlari bilan ham birlashtirib turgan bo‘g‘in bu mahalla bo‘lgan. Asli “Mahalla” atamasi arabcha so‘z bo‘lib, o‘rin-joy degan ma’noni anglatadi.[1] U turli hududlarda joy, guzar, jamoa, elat nomlar bilan atalib kelingan. Mahallani boshqarish jamoatchilik asosida olib boriladi. Mahalla kichik ma’muriy xudud bo‘lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar umumiyliги bilan bog‘langan kishilar jamoasi birligidir. Tarixning turli bosqichlarida davrlar, tuzumlar o‘zgarishiga qarab mahallaning vazifalari xam o‘zgarib turgan. Fuqarolik jamiyatining eng muhim insitutlaridan biri bo‘lgan mahalla instituti haqida gap ketganda aytish mumkinki, qadim-qadimdan xalqimizning milliy turmush va tafakkur tarziga aylanib ketgan jamoa bo‘lish, bir

mahalla bo‘lib yashash tuyg‘usi ijtimoiy hayotning ham uzviy qismi sifatida katta bir ma‘naviy qadriyat deb qaralgan. Insonning jamoa bo‘lib yashashga bo‘lgan ehtiyoji odamlarning ko‘payishi oqibatida paydo bo‘lganligi to‘g‘risida, dastlab Forobiyning «Fozil shahar aholisining maslagi» asarida[2], keyinchalik esa Abu Ali ibn Sinoning «Uy xo‘jaligi to‘g‘risida»gi risolasida: «Insonlar jamoa bo‘lib yashashlari uchun o‘zaro muloqotda, turli munosabatda bo‘lishlari, bir birlarining ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilishlari va umumiy intilish, maqsadga ega bo‘lishlari lozim», – degan fikri orqali rivojlantirildi[3]. Shu bilan birga, mutafakkir jamiyatda insonlar o‘zaro yordam asosida yashashlari kerak, deb alohida ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, inson o‘z ehtiyojlarini tushunib, o‘ziga o‘xshash kishilar bilan birga jamoa bo‘lib yashashning zarurligini anglay boshlashi o‘ziga xos kelishuvchanlik shartnomasiga oid munosabatlarning kelib chiqishiga[2,97.b], shuningdek, mahalla tushunchasining paydo bo‘lishiga asos yaratdi.

Darxaqiqat Mahalla xalqimizning turmush tarzi, ruhiy-ma‘naviy ehtiyojidan kelib chiqib, mafkuraviy ongini va tafakurini, insonlarning o‘zaro aloqalarini, oilaviy munosabatlarni shakllantirishda va qo‘ni-qo‘shnichilik, quda-andachilik shu kabi masalalarga yechim topuvchi nodavlat tashkilot hisoblanadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, mahallalarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tabiricha “qaysi mahallada ish to‘g‘ri tashkil etilib, fuqarolar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatilgan bo‘lsa, o‘sha yerda hamjihatlik, mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda, noxush holatlarga yo‘l qo‘yilmayapti”[1,2.b]. Shu bois yurtimizda amalga oshirilayotgan izchil va tizimli islohatlarning keng tizimli bosqichida mahallalarni yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash davr taqozosidir. Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-fevral kuni qabul qilingan “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[4] farmonga muvofiq fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarini samaradorligini oshirish, mahalla institutini fuqarolarga yaqin va xalqchil tizimga aylantirish, fuqarolar yig‘inlarining oliy manfaatlarini yuzaga

keltiradigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro‘yobga chiqarish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro aloqalarni yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan edi. Bunga ko‘ra ohirgi besh yil mobaynida fuqarolar yig‘inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolarining 367 tasi kapital ta’mirlandi va 350 dan ortig‘i rekonstruksiya qilindi, namunaviy loihalar asosida 216 ta bino yangidan barpo qlinib foydalanishga topshirildi. Ushbu farmonga binoan 2018-yil 1-dekabirga qadar shaharlar markazi va tumanlarda “Mahalla markazi” majmuoalarining binolarni modirnezatsiyalandi va yangidan barpo qilindi.[5] Bundan kornib turibtiki mahallalarni rivojlantrish maqsadida olib borilayotgan islohatlar misol qiladigan bo‘lsak 2022- 2026 yilgi “Taraqiyot strategiyasi” davlat dasturining 3-maqsadiga binoan “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslari zamon talablariga moslashtirish”[6]. Bunga ko‘ra mahalliy ijro hokimyat organlari demokratik tamoilar asosida shaklantirish, mahalliy hokimliklarni moliyaviy ta’minotni kengaytirish, mahalliy hokimliklarning boshqaruv faoliyatiga AKTni keng joriy qilish ko‘zlanmoqda.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, mahalla instituti bugungi kunda jamiyat va davlat ijtimoiy hayotining eng jo‘shqin, faol, qaynoq va jonli maskaniga aylanib bormoqda. Yurtboshimiz mahallalarda to‘planib qolgan muamolarni va kamchiliklarni samarali yechish, tinch-totuvlikni asrab-avaylash yo‘lida barcha sa’y-harakatlarni birlashtirish kerakligini takidladilar. Bundan ko‘rinib turibtiki yurtimizda mahalla institutini rivojlantirish, qo‘lab-quvatlash va moddiy ta’minlash o‘z samarasin bermoqda. Bundan rivojlanishlar va berilayotgan e’tiborlar xalqimiz ko‘ngliga xush kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Xalq so‘zi” 2017 yil, 23 mart. 26-son.
2. Faxridin Husanov. Ma’naviyat yulduzlari. –T.: O‘zbekiston ,1999. 67–68-97-bet.

3. M.M. Xayrullayev. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – T.: O‘zbekiston,1995. - 67-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 3-fevraldagi PF-4944-son. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 69-modda.
5. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.12.2018-y., 06/18/5597/2300-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi PF-60-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
7. Umidbek Adambayev. (2021). FAITH – THE CONCEPTION OF BELIEF AND STEPS TO DEVELOP IT / ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. – pp. 96-100.
8. U. Adambaev. (2021). CONFIDENCE-NONVERBAL METHODS OF ARGUMENTATION IN THE FORMATION OF THE VERB /Экономика и социум. – С.18-21.
9. Адамбаев, У. Х. (2022). ИШОНЧ-ЭЪТИҚОДНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АРГУМЕНТЛАШНИНГ ЎРНИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(1), 898-905.
10. Умидбек Хаитбаевич Адамбаев, (2022). Ишонч – эътиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири, *SCIENTIFIC PROGRESS* (pp. 348-351).
11. Адамбаев, У. Х., & Джораев, Д. Ў. (2022). ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ ВА УНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(2), 125-134.
12. Adambayev, U. X., & Rahimberdiyev, S. U. (2022). NAVRO‘Z BAYRAMI VA UNING ETNOMADANIY AHAMIYATI. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(2), 175-177.
13. Umid Adambayev. (2021). MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH MILLAT TARAQIYOTINING POYDEVORI / *Scientific progress*. – pp. 1858-1862.

14. U. X. Adambayev. (2022). AMIR TEMUR YURITGAN DAVLAT SIYOSATI. PEDAGOGS jurnali, 6(1), 68-71.
15. U. X. Adambayev. (2022). ETNOMADANIYATNING INSONLAR HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI. Scientific Progress 3 (3), 519-521.
16. U. X. Adambayev. (2022). ZAMONAVIY DUNYO: IJTIMOIIY TARMOQLAR INSON RESURSLARINI BOSHQARADI. Scientific Progress 3 (3), 499-501.
17. U. X. Adambayev. (2022). SOG‘LOM OILADA MADANIY TARBIYANING SHAKLLANTIRISH. Scientific Progress 3 (3), 502-505.
18. U. X. Adambayev. (2022). JAMOATCHILIK NAZORATI VA UNI TASHKIL ETISHDA YOSHLARNING O‘RNI VA ROLI. Academic Research in Educational Sciences, 3(4), 260-264.
19. U. X. Adambayev. (2022). XIX ASRNING BOShLARIDATURKISTONDA JADIDCHILIK HARAkATINING ETNOPEDAqOGIK AHAMIYATI. Academic Research in Educational Sciences, 3(4), 273-279.